

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

N^o 78

2022 yil "25" 08



“Regional va O'rta Osiyo geologiyasi va neftgazlligi”
fanining
Ishchi o'quv dasturi
(sillabusi)

Bilim sohasi:	300000 – Ishlab chiqarish - texnik soha`
Ta'lim sohasi:	310000 – Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	5311700 – Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (neft va gaz konlari)

Umumiy o'quv soati	– 180 soat
Shu jumladan:	
Ma'ruza	– 45 soat (5- semestr: 23 soat, 6- semestr: 22 soat)
Amaliy mashg'ulotlar	– 45 soat (5- semestr: 23 soat, 6- semestr: 22 soat)
Mustaqil ta'lim	90 soat (5- semestr: 45 soat, 6- semestr: 45 soat)

Qarshi-202_ yil

Ushbu fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "28.08.2021 yil Uslubiy Kengashida tasdiqlangan Bayonnoma № 1 « 30 » 08 2021 fan dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi:

X.R.Axmedov - QMII "Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrası katta o'qituvchisi

Fanning ishchi o'quv dasturi FQG va R kafedrası yig'ilishida (bayon № 1, "27.08.2021 y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 1, "27.08.2021 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № 1, " " 2021 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i

Turdiyev Sh.

Fakultet Uslubiy Komissiyasi raisi

G'ofirov M.

Kafedra mudiri

Turdiyev Sh.

2

3

"Regional va O'rta Osiyo geologiyasi va neftgazligi" fani sillabusi

Fan (modul) kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS krediti
KMIN2407	202_-202_	5/6	3/3
Fan (modul) turi	Ta'lim tili		Haftalik dars soati
Tanlov fan	o'zbek		/
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
Regional va O'O geologisi va NG	90	90	180

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi		
O'qituvchilar	F.i.sh.	Telefon nomeri	E-mail
Ma'ruzachi	Axmedov Xolxo'ja Raxmatullayevich	93 934 56 61	axmedov-x-68@mail.ru
Amaliy mashg'ulot	Axmedov Xolxo'ja Raxmatullayevich	93 934 56 61	axmedov-x-68@mail.ru

Fan/modul kodi NGRZH4810	O'quv yili 202_2022	Semestr(lar) 5-6	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami yuklama (soat)
	Regional va O'rta Osiyo geologiyasi va neftgazligi	90	90
2.	Fanning mazmuni		
	2.1. Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari Fanni o'qitishdan maqsad-talablarida Foydali qazilmalar geologiyasi va qidirish ishlari (neft va gaz) bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fan o'qitilishidan maqsad – soha bo'yicha mutahassislarini ta'lim standartida talab qilingan bilimlar bilan ta'minlash hamda ularni fikrlash doirasini regional masshtabdagi ko'nikmalar bilan boyitish. O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari: O'rta Osiyo va unga tutash bo'lgan regional hududlardagi litosfera plitalarini chegaralash, har bir litosfera plitasida (o'rganilayotgan hududga nisbatan) regional geostruktura elementlarini ajratish, ajratilgan regional geostruktura elementlarining geologik tuzilishini, ya'ni stratigrafiyasi, litologiyasi, geologik rivojlanish tarixini o'zlashtirish, regional geostruktura elementlarida neftgaz to'plamlarini joylashishini va bunday neftgazlikning sabablarini muayyan misollar miqyosida ko'rib chiqish.		
2.3. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 1-Modul. Regional va O'rta Osiyo geologiyasi va neftgazligining umumiy asoslari 1-mavzu. Regional va O'rta Osiyo geologiyasi va neftgazligi faniga kirish “Regional va O'rta Osiyo geologiyasi va neftgazligi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: - Avvalgi kurslarda o'zlashtirilgan bilimlari bilan bog'liq holda ushbu fanning asosiy tushunchalari; - O'rta Osiyo va unga tutash regional strukturalar mujassamlangan litosfera fanlari asosida XIX – asrning oxirida va XX – asrning boshlanishida hosil bo'lgan va rivojlangan. Foydali qazilma konlarini izlashda Amaliy geofizika fanining o'rni va plitalarining chegaralarini ajratish prinsiplari; - Ajratilgan litosfera plitalaridagi regional geostrukturalarning joylashishi va ularning geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi.			

- O'rta Osiyo va unga tutash regional geostruktura elementlarining neftgazligini, neftgaz to'plamlarining joylashish qonuniyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish; - O'rta Osiyo va unga tutash regional geostrukturalar timsolida turli toifadagi litosfera plitalari rivojida geostruktura elementlarining shakllanishini o'rganish; - Muayyan regional geostruktura elementlarining geologik kesimini, rivojlanish tarixi; - Regional nuqtai nazardan turli xil geostruktura elementlarining joylashishidagi qonuniyatlarini neftgazlik bilan bog'liqligini; - Regional geostrukturalar neftgazlikni nazorat etishini aniq misollarda ko'rib chiqish hamda Regional va O'rta Osiyo geologiyasining neftgazligini neftgazogeologik rayonlashtirish prinsiplari asosida o'rganilganlikni bilish va ulardan foydalana bilish; - Regional va O'rta Osiyo geologiyasining neftgazligi Yevrosiyo litosfera plitasi, Arabiston litosfera plitasining shakllanishi bilan bog'liqligi; - Litosfera plitalari chegarasidagi va ularning markaziy qismlaridagi regional geostruktura elementlarining geologik tuzilishi turlicha bo'lishligi; - Regional geologiyaning neftgazlikni nazorat etishi va uni o'rganishda tektonik prinsiplardan kelib chiqib, neftgaz geologik rayonlashtirish maqsadga muvofiqligi; - Regional va O'rta Osiyo neftgazligining, ya'ni bu hududdagi regional neftgazogeologik elementlarning – neftgazli provinsiyalar va oblastlarning joylashish xususiyatlarini o'zlashtirishligi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	2-mavzu. Regional geotektonika Regional geotektonika – bu turli tektonik tuzilmalar va ayrim tuzilmaviy shakllar bilan namoyon bulgan alohida yirik xududlar tuzilishi va rivojlanishini o'rganuvchi tektonika fanining bulimi. Oddiyoq qilib aytganda bu hududlar tektonikasini o'rganib, yoritib berivchi bo'lim. Bu vazifani bajarish uchun o'ziga tegishli metodlar bilan birgalikda fasial-stratigrafiya, geomorfologiya, litologiya-petrografiya, geodeziya, geokimyo ma'lumotlarini jalb etadi.
3-mavzu. Yer qobig'ini rayonlashtirishda litodinamik komplekslarining ahamiyati Paleotektonik tahlil metodlari orasida formatsiya tahlilili muhim o'rin tutadi. Formatsiya (geoformatsiya) – bu yer qobig'i asosiy strukturaliy elementlari rivojlanishining ma'lum bir bosqichida hosil bo'lishi va shakllanishining umumiyli bilan bog'liq tog' jinslarining ma'lum bir genetik turlarining qonuniyatlari va barqarorligi (paragenез). Formatsiya tushunchasi barcha turdagi tog' jinslariga nisbatan qo'llaniladi – cho'kindi, vulqon, magmatik intruziv, metamorfik. Cho'kindi va vulkanogen, vulkonogen va plutonik jinslar kombinatsiyalari litologik uyushma deb ataladi (misol uchun, trappli, ofiolitli uyushmalar). Juda kam hollarda formatsiya qandaydir bir jinsda mujassamlangan (misol uchun, yozuv bo'ri, kvarsli qumlar, tolitli bazaltlar, granitoidlar).	4-mavzu. Regional geologiya va zamin neftgazligining tadqiqotidagi

metodologik qoidalar va obyektlar

“Plitalar tektonikasi” nazariyasi 20-asrning 30 yillariga qadar mavjud bo‘lgan “Qit’alar harakati”ning qaytadan tiklanishi bo‘lsa ham, ammo bu tiklanish yangi ma’lumotlarga tayanadi. Yangi nazariya faqatgina Yer tuzilishini o‘rganuvchi fan bo‘lib, qolmasdan geologiyaning boshqa sohalarini ham o‘rganadi.

5-mavzu. O‘zbekiston va unga tutash hududlarning regional neftgazli hududlarining tasnifi va tiplari

O‘zbekiston va unga tutash davlatlar hududida bugungi kunda to‘rtta neftgazli provinsiyalar ajratilgan bo‘lib (Shimoliy Ustyurt, Taron, Tyan-Shan-Kunlun, Tyan-Shan) neftgazlilarning stratigrafik diapazoni mezozoy va paleozoy-mezozoy yotqizilarni o‘z ichiga oladi. Bu neftgazli provinsiyalarning geosinklinal turlari geodinamik sharoitlarga rivojlangan.

Bu geodinamik sharoitlar Yer turli bo‘laklarining bir-biridan ajralishi va qaytadan birikishi oqibatida ro‘y berar ekan. Ajralish va birikish harakatlarini yuqorida izohlab chiqqanligimiz sababli qaytadan bu haqda to‘xtalib o‘tmasdan, shuni qayd etish lozimki neftgazgeologik rayonlashtirish natijasida ajratilgan har bir NGP ni tashkil etuvchi va uning regional neftgazliligini nazorat qiluvchi geotuzilmalarning shakllanishi aynan shu geodinamik vaziyatlarga bog‘likdir.

2-Modul. Afrika litosfera plitasi.

6-mavzu. Afrika litosfera plitasida Yaqin Sharqning o‘rni.

Afrika qadimgi platformasining shimoliy qismini egallagan Sahroi-Kabir (Saxara) plitasi tarkibiga kiruvchi Yaqin Sharqning geotektonik elementlari Misr Arab Respublikasida joylashgan Qatar va Sudan Arab Respublikasi hududidan o‘rin olgan Kufra sineklizalaridan iborat.

7-mavzu. Afrika litosfera plitasining neft va gaz zaxiralari va istiqbolli. Afrika regionidagi neftgazli hududlar neft va gaz zaxiralari, razvedka bo‘lgan zaxiralar, istiqbolli remurslari haqida ma’lumotlar.

8-mavzu. Sharqiy Afrika rift sistemasining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi

Sharqiy Afrika rift sistemasi – dunyodagi geologik mo‘jizalardan biri hisoblanadi, Yerning tektonik kuchi eski plitalarni bo‘laklarga bo‘lib, yangi plitalar hosil qiladi. Boshqacha aytganda rift yer qobig‘ida vaqti bilan darzliklarning kengayishi hisoblanadi. Ilmiy tilda oddiy tashlamalar bilan qararni qarshi chegaralangan bo‘ylamasimon havzadir. Uzlilmalarni hosil bo‘lish jarayoni sharqiy Afrikada yaqqol namayon bo‘lgan (Efiopiya-Keniya-Uganda-Tanzaniya), Yangi plitani geologlar Nubiy plitasi deb atadi. Nubiy plitasi Afrika hududining katta qismini egallaydi, Afrikaning nisbatan kichikroq hududini egallagan plita Somaliy plitasi deb nomlangan

9-mavzu. Yaqin va O‘rta Sharq geologiyasi va neftgazliligi

Regional geologiyada litosfera plitalari tushunchasiga tayanishlikni va o‘rganilayotgan hududning turli litosfera plitalaridagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Arabiston litosfera plitasining geologiyasi va neftgazliligi. Bu litosfera plitasi tarkibiga kiruvchi regional geosinklinal Arabiston qadimgi platformasi va Mesopotam tog‘ oldi egikligining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi alohida yoritib beriladi.

10-mavzu. Arabiston qadimgi platformasining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi.

Qadimgi platformaning geologik tuzilishi alohida yoritib beriladi. Qadimgi platformaning (Saud Arabistoni, Qatar, Baxrayn, Quvayt, Janubiy Iroq, BAA, Suriya, Iordaniya, Livan, Sunay yarim oroli va Isroil) va tog‘ oldi egikligining (Suriya, Iroq, Eron, Turkiya) neftgazliligi neftgazgeologik rayonlashtirish asosida ochib beriladi va neftgazli provinsiyalar va oblaslar ko‘rib chiqilayotganda ularning geologik tuzilishlariga ham ta’rif beriladi.

3-Modul. Yosh platformalar bilan bog‘liq neftgazli hududlar

11-mavzu. O‘rta Osiyo cho‘kindi havzalarining mezozoy va kaynozoyda rivojlanishi

Mezozoy va kaynozoyda O‘rta Osiyo bevosita Tetas okeani va Alp-Himoloy burmalangan o‘lkasi ta’sirida rivojlangan. Bu xususiyat barcha geologik voqealar mintaqalarda ham, okean ichida va uni atrofida ham, deyarli bir vaqtda sodir bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

Mezozoyni boshiga kelib, O‘rta Osiyo maydonida xilma-xil geodinamik jarayonlar natijasida yangi yer po’sti shakllanishi yakunlandi.

12-mavzu. Kaspiybo‘yi megasinklizasining geologik tuzilishi va neftgazliligi

Sharqiy Yevropa qadimgi platformasidagi neftgazgeologik nuqtai nazardan turli geosinklinal elementlari majud. Bu elementlardan biri bo‘lgan kaspiybo‘yi megasinklisasi Ustyurt sinklizi orqali turon platformasiga tutash bo‘lib, neftgazliligi jihatidan ahamiyatli regionlardan biri hisoblanadi. Megasinklizasining ko‘p qismi Qozog‘iston hududi va akvatoriylariga to‘g‘ri keladi.

13-mavzu. Ustyurt sineklizasining tektonik rivojlanish tarixi va geologik tuzilishi

Bu sinekliza Ustyurt o‘lkasining shimoliy qismidan o‘rin olgan va sharqda Orol dengizi botiqligidan keskin chink bilan ajralib, Ustyurt platosi sifatida yastangan.

Ustbrt sineklisasi genetik jihatdan turli yoshdagi platformalar oralig‘ida joylashgan geotektonik element bo‘lganligi uchun u goh Sharqiy Yevropa qadimgi platformasini Kaspiybo‘yi megasinklisasi tarkibiga, goh Turon yosh plitasi tarkibiga kiritilgan.

14-mavzu. Turon plitasining geosinklinal bosqichda rivojlanishi

19-mavzu. Alp-HimolayAlpiy burmahanligining Neotetis kamari geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi Alp-Himolay kamari haqida Sharqning mutafakkir allomasi "pitalar tektonikasi" haqidagi fikrlarni bildirgan Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" deb atalgan asarida fikr yuritgan. Bunday o'likan tog' tizmasini olim go'yoki "inson umurtqasi" singari er shariida yastanib yotishligiga diqqatni jalb etgan. Uning uzunligi Gibrallar bo'g'ozidan to Indoneziyagacha 17 ming km atrofida va bir qancha shoxobchalardan iborat 20-mavzu. Kopetdog' tog'oldi egekligi Kopetdog' tog'oldi egilmasi neotetis alpiy burmahanligining Dobrudjin-Kopetdog' shobobchasi tarkibiga kiradi. Kopetdog' egilmasi shimoliy-g'arbga qarab 550 km masofaga 25-60 km kenglikda davom etadi. Mezozoy-kaynozoy erasi yotqizqlarining qalinligi Kopetdog' oldida 6-7 km atrofida o'zgaradi. Poydevor paleozoy erasining magnatik, cho'kindi va kuchli dislokasiyaga uchragan metamorfik jinslaridan iborat. Cho'kindi qoplam orogen davrigacha va orogen davrida paydo bo'lgan strukturaviy qavatlarida ajraladi. 21-mavzu. Pomir burmahan oblasti Pomir Alpiy-O'rtaer dengizi tarkibiga kiradi va Yuqori Osiyo tarkibiga tog' inshooti sifatida namoyonlanadi. Relfining tuzilishi bo'yicha G'arbiy va Sharqiy Pomirga bo'linadi. G'arbiy Pomir - bu absolyut belgisi 7000 m bo'lgan baland tog' tizmalari rayon bo'lib, shimolda yoysimon bukilgan. Sharqiy Pomir 5500-6500 m yuqori tog' ko'tarilmalaridan iborat. 22-mavzu. Osiyoning tarqoq sesmik kamarida O'rtaOsiyoning o'rni Uglevodorod konlarining maydon bo'ylab tarqalganligini kuzatadigan bo'lsak, OTSKning O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston hududlarida asosan neft xazirali uyumlar tarqalganligini ko'ramiz. Qozog'iston hududidagi konlarda faqat gaz xaziralari, Mongoliyada esa-neft uyumlari mavjud. Uglevodorodlar tarqalishining bunday xususiyati ko'p jihatdan OTSK hududlarining tektonikasi bilan bog'liq. 23-mavzu. Tyan-Shan - Pomir Burmahan sistemasining neftgazligi. Bu provinsiya Tyan-Shan-Pomir burmahan sistemalari hududida ajratilgan bo'lib, tektonik rivojlanish tarixi bo'yicha epiplatforma orogeni hisoblanadi. Bu provinsiya mustaqil neftgazli oblastlar bilan bog'liq bir qator tog' oraliq'i botiqliklarini o'z ichiga oladi. Bu botiqliklar va bular bilan bog'liq NGO Xitoy, Afg'oniston va O'rta Osiyo hududlarida joylashgan. O'rta Osiyo hududida ikkita Farg'ona va Afg'on-Tojik neftgazli oblastlari ajratiladi	2.4. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlarda talabalar o'rganiladigan hududlarning neftgazligi, neftgazga istiqbolini tahlil qiladilar, shuningdek, alohida
---	--

Kechki trias davrining so'ngi bosqichlarida Turon plitasi asta-sekin platforma rivojlanish bosqichiga o'tgan. Nori va ret yarushlari so'ngida yirik yuqori paleozoy-trias depressiyasining bukilgan qismlari yuqori trias burmahanligi bilan kam qamrab olingan va orogen harakatlar sodir bo'lmagan, kulrang argillitli platforma qoplamasi qatlami to'plana boshlagan. Bu qatlamlar qoplama maydoni bo'yicha ahamiyatli ko'rinishda Shimoliy va Janubiy Ustyurt, Janubiy Mang'ishloq, Qoraqum va Janubiy-Sharqiy Turkmaniston hududlarida tarqalgan. 15-mavzu. Turon plitasining platforma bosqichida rivojlanishi Kechki trias davrining so'ngi bosqichlarida Turon plitasi asta-sekin platforma rivojlanish bosqichiga o'tgan. Nori va ret yarushlari so'ngida yirik yuqori paleozoy-trias depressiyasining bukilgan qismlari yuqori trias burmahanligi bilan kam qamrab olingan va orogen harakatlar sodir bo'lmagan, kulrang argillitli platforma qoplamasi qatlami to'plana boshlagan. Bu qatlamlar qoplama maydoni bo'yicha ahamiyatli ko'rinishda Shimoliy va Janubiy Ustyurt, Janubiy Mang'ishloq, Qoraqum va Janubiy-Sharqiy Turkmaniston hududlarida tarqalgan. 16-mavzu. Turon plitasining neftgazli komplekslari. Turon neftgaz provinsiyasi tarkibidagi neftgazli havzalar ularning tektonik elementlarini hosil bo'lish sharoiti neft va gaz uyumlarining shakllanish qonuniyatlariga haqida ma'lumotlar keltirilgan. 17-mavzu. Amudaryo sniklizasining geologik tuzilishi, tektonik rivojlanishi va foydali qazilmalari XX asrning 60 yillarida Turkmanistonning sharqiy qismi va O'zbekistonning Janubiy-sharqiy qismlari geologlarning diqqat markazidagi o'rganiladigan obyektga aylangan. Bu hudud Amudaryo neftgazli provinsiyasi deb ham yuritiladi. Bu provinsiya hajmi va neft va gaz xaziralari va resurslarining muhimligi bo'yicha G'arbiy Sibir provinsiyasidan keyingi yirik provinsiya hisoblanadi. 4-Modul. Alp-Himolay va alp burmahanligi Neotetis kamarining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi. 18-mavzu. Tetisni beklilishi. Alp-Himolay burmalangan o'likani hosil bo'lishi Alp-Ximolay alp burmahanligi Neotetis kamari geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi. Bunda ushbu kamarining Yaqin Sharqdagi tog'liklari (tavridlar, Zagros va Makran oblastlari hamda Markaziy Osiyodagi Kopetdog' qismlarining geologiyasi va rivojlanish tarixi ko'rib chiqiladi. Alp-Ximolay alp burmahanligi tog'lararo botiqliklarning neftgazli (Turkiya, Suriya) provinsiyalari kamarida Tavridlar, Zagros (Iroq, Eron) va Kopetdog' (Turkmaniston) neftgazligi yoritib beriladi. Sharqiy Yevropa qadimgi platformasi Markaziy Osiyo qismining (Eron, Turkmaniston, Qozog'iston) geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi.	
--	--

fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; ▪ yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilmtalab jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish; ▪ faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (diskussiyalar, masofaviy) ta'lim.	Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Dunyo bo'yicha yoqilg'i-energetika balansining o'zgarish tendensiyasi va neft va gazning ahamiyati. 2. Tektonik izlanish metodlari. 3. Geotektonik gipotezalar. 4. Yer qobig'ing asosiy geotektonik elementlari. Litosfera plitalari turlari. 5. Platformalar: ularning tuzilishi va turlari. 6. Geosinklinallar: kiskacha tavsifi va geotektonik elementlari. 7. O'zbekistonda slanetsli neft resurslari 8. O'zbekistonda ko'mir resurslari. 9. O'zbekistonning neftgazli provinsiyalari va oblastlari. 10. chegaraviy geostruktura elementlari 11. Turon plitasi 12. Skif plitasi 13. Sharqiy Yevropa qadimgi platformasi 14. Ural-Mongol burmahan kamari 15. Qozog'iston-Altay gersin burmahan kamari 16. Janubiy Tyan-Shan gersin burmahan kamari 17. Tyan-Shan kaledon burmahan kamari 18. O'rta yer dengizi kamari 19. Tinch okeani kamari. 20. Pomir burmahan oblasti 21. Kopetdog' burmahan oblasti 22. Buxoro-Xiva neftgazli regionida tabiiy tutqichlarni hosil bo'lish sharoiti 23. Turon plitasining platforma bosqichi 24. Turon plitasining geosinklinal bosqichi 25. Shimoliy Ustyurt sineklizasi 26. Qizilqum ko'tarilmasi 27. Alp-himolay alpiy burmahanligining geologik tuzilishi 28. Arabiston platformasining chekka sharqiy qismi paleozoy-meozoy-kaynazoy neftgazli provinsiyasi 29. Arabiston platformasining shimoliy-g'arbiy O'rta yer dengizidagi qismi mezozoy-kaynazoy neftgazli provinsiyasi
---	--

maydonlarning tektonik rivojlanish tarixi va geologik tuzilishini muhokama qilishadi. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Yer qobig'ining ajralish bosqichidagi geodinamik sharoitlar. 2. Yer qobig'ining brikish bosqichidagi geodinamik sharoitlar. 3. Regional tektonik tuzilmalar. 4. Tutash (berk) strukturalar. 5. I - III tartibli tektonik elementlar 6. Neftgaz geologik rayonlashtirish prinsiplari va ularning belgilari 7. Turon platformasi va Tyan-Shan deytroorogen tuzilmasi 8. Geotektonik asosiy strukturalarini shakllanish geodinamik sharoitlari 9. Geologik strukturalar hosil bo'lish mexanizmlari to'g'risida ma'lumot 10. Yer qobig'ini neftgazligini prognozlashning asosiy omillari. 11. Mesopotamiya tog'oldi egikligining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi. 12. G'arbiy Turkmaniston tog' oraliq' botiqligi 13. Afrika massivi 14. Afrika-Arabiston platformasi 15. Afrika regionida neft va gaz konlari va razvedka bo'lgan xaxiralari 16. Qizil dengiz rift sistemasi 17. Fors ko'rfazi neftgazli havzasi 18. Markaziy Eron neftgazli havzasi 19. Suoxandaryo sinklizasining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi 20. Farg'ona neftgazli oblastining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi 21. Osiyoning tarqoq sesmik kamaridagi davlatlar hududida neft va tabiiy gaz xaxiralari va qazib chiqarish 22. Osiyoning tarqoq sesmik kamari neftgazogeologik rayonlashtirish 23. Osiyoning tarqoq sesmik kamaridagi neftgaz potentsialiga ega bo'lgan hududlar Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarini yechish orqali yanada boyitadilar.	2.5. Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin: ▪ darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish; ▪ tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalari qismini o'zlashtirish; ▪ maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha
--	---

30.	Mesopotamiya alpiy burmahanligi tog'oldi egekligining paleozoy-mezozoy-kaynozoy neftgazli provinsiyasi
31.	Zagros-Makran alpiy burmahanligi tog'oralig'i botiqligining asosan kaynozoy neftgazli provinsiyasi
32.	Yaqin sharq davlatlari, ulardagi neft va tabiiy gaz zaxiralari, qazib chiqarish su'ratlari
33.	Arabiston litosfera plitasi va tutash geostrukturalarning geologik tuzilishi va geotektonikasi
34.	Arabiston qadimgi platformasining geologik tuzilishi va neftgazliliigi
35.	Arabiston litosfera plitasining neftgazogeologik rayonlashtirish
36.	Turon plitasining neftgazogeologik rayonlashtirish
37.	Farg'ona neftgazli regionining neftgazga istiqbolliigi
38.	Surxandaryo neftgazli regionidagi og'ir neft konlari
39.	Buxoro-Xiva regionidagi neft va gaz uyumlarining hosil bo'lish qonuniyatlari
40.	Ustyurt neftgazli regionining neftgazga istiqbolliigi
41.	Toshkentoldi hududining stratigrafiyasi va paleozoy yotqizqlarining litologik tavsifi
42.	Beshkent egeklida tabiiy tutqichlar va UV uyumlarining hosil bo'lishi va saqlanib qolishida tektonik uzilmalarning ta'siri
43.	Afg'on-Tojik botiqligining geologik tuzilishi va tektonik rivojlanish tarixi
44.	Amur litosfera plitasi
45.	Afrika litosfera plitasini neftgazogeologik rayonlashtirish
3.	– Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar) – Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: -Talabalarda O'rta Osiyo geologiyasi va tektonik rivojlanishiga ta'sir qilgan hududarning geologik tuzilishi va neftgazliliigini o'rganadi. Shuning neftgazliliik istiqbollari va ularning sanoatdagi ahamiyatini tahlil qiladilar ; –ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ahamiyat ksb etadigan maqolalar, monografiyalar bilan tanishib chiqiladi va ulardagi ma'mulotlardan foydalaniladi, shuningdek olingan ma'lumotlar asosida neftgazliliigini baholashni o'rganish.
4.	I. Ta'lim texnologiyalari va uslublari • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi. Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil: - muammoli mavzular bo'yicha; - mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha; - ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha; - ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan; - mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivumlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.
5.	Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganiliyotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma testni topshirish.
6	Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish. Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi: Oraliq baholash (ON) - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollektivum, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyixasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi; Yakuniy baxolash (VAN) - semestr yakunida talabaning muayyan fan buyicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakllarda o'tkaziladi. Talabaning fan buyicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy

mezonlar tavsiya etiladi: 5 (a'lo) baho: xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish. 4 (yaxshi) baho: mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish. 3 (qoniqarli) baho: mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish. 2 (qoniqarsiz) baho: dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmasslik; mustaqil fikrlay olmaslik.	7. Adabiyotlar 7.1. Asosiy adabiyotlar: 1.1. Хаин В.Е., Лимонов. Л «Региональная геотектоника». Москва МГУ, 2005. 2. Бакиров А.А., Варанов М.И., Бакиров Э.А. «Нефтегазовые провинции и области зарубежных стран». Москва, Недра, 2001. 3. А.А.Абидов. «Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari». Toshkent, Sharq, 2009. 4. А.А. Абидов, I.X. Xolismatov, X.A. Abidov. «Regional va O'rta Osiyo geologiyasi va neftgazliligi». Toshkent TD TU, 2007. 5. Ли Го Юй. геология нефти и газа Китая. Перевод с китайского Научный редактор В.С.Вышемирский, Новосибирск 2003. 6. Т.Н.Долимов, V.I.Troitskiy, "Evolution geologiya" (Yerning geologik rivojlanish tarixi) 7.2. Qo'shimcha adabiyotlar
--	---

1. Abidov A.A., Ergashev Y., Qodirov M. Neft va gaz geologiyasi. Ruscha-o'zbekcha izohli lug'at. Toshkent. Sharq-2000 y. 2. Abidov A.A., Hayitov O.G', Xalimatov I.X. Neft va gaz geologiyasi. Toshkent-2005 y. 3. Abidov A.A. Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari. Toshkent, Sharq-2009 y. 4. В.Е. Хаин «Тектоника континентов и океанов» Москва, Научный мир, 2001. 6.3. Internet saytlari 1. https://ru.wikipedia.org/wiki 3. https://kursiv.kz/ 3. https://miningwiki.ru/ugol 4. https://ru.wikipedia.org/wiki/ 5. https://tyulyagin.ru/s/ratings/krupneishie-zapasy-nefti-po-stranam-mira.html 6. http://invest-in-uzbekistan.org/ekonomika/	7. Fan dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot institute Kengashida (bayon № _____ 202_ y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan. 8. Fan(modul) uchun mas'ullar: Axmedov X.R. Ochilov I.S. Qarshi muhandislik iqtisodiyot institute, "Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.
--	--